



PROSPECTIVE TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF ETHNOCULTURAL PROCESSES AND INTERETHNIC RELATIONS IN NEW UZBEKISTAN

Muhayyo Akhmetjanovna Matnazarova

Lecturer, Department of Political Science

Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, ethnocultural processes, interethnic relations, tolerance, cultural diversity, social stability, national policy.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the characteristics of ethnocultural processes and the prospective tasks of developing interethnic relations in the context of New Uzbekistan. The study reveals the priority directions of state policy aimed at preserving cultural diversity, strengthening national tolerance, and ensuring social cohesion in a multiethnic society. Particular attention is paid to the issues of ethnocultural identity, national self-awareness, and the development of intercultural dialogue under the conditions of globalization.

YANGI O'ZBEKISTONDA ETNOMADANIY JARAYONLAR VA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

Muhayyo Axmetjanovna Matnazarova

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Siyosiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, etnomadaniy jarayonlar, millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy barqarorlik, milliy siyosat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida etnomadaniy jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari hamda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning istiqboldagi vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko'pmillatli jamiyatda madaniy xilma-xillikni saqlash, milliy bag'rikenglik va ijtimoiy hamjihatlikni

ta'minlashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ochib berilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida etnomadaniy identifikatsiya, milliy o'zlikni anglash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ И МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Мухайё Ахметжановна Матназарова

Доктор философии (PhD) по политическим наукам

Преподаватель кафедры политических наук

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Новый	Аннотация:	В	статье
Узбекистан, этнокультурные процессы, межнациональные отношения, толерантность, культурное многообразие, социальная стабильность, национальная политика.	Новый	анализируются особенности развития этнокультурных процессов и перспективные задачи укрепления межнациональных отношений в условиях Нового Узбекистана. В исследовании раскрываются приоритетные направления государственной политики, направленные на сохранение культурного многообразия, формирование национальной толерантности и обеспечение социальной сплочённости в полиэтничном обществе. Особое внимание уделяется проблемам этнокультурной идентичности, национального самосознания и развитию межкультурного диалога в условиях глобализации. Обоснована роль образования, институтов гражданского общества и средств массовой информации в укреплении межнационального согласия.	В	статье

Kirish. Yangi O'zbekistonda Bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunda ko'p millatli jamiyatimiz fuqarolari ongida haqiqiy vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish bu sohadagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Millatlararo do'stlik va hamkorlik yo'li bilan madaniy, ma'rifiy va ma'naviy yuksalish sari shaxdam qadamlar tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19- yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz

yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur", degan so'zlari hozirgi kunda har bir tarixchi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ya'ni, bu fikrlar biz o'rganayotgan masalaning dolzarbligini belgilab, har bir millat vakilining milliy o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishni talab qiladi. Hozir dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko'p millatli xarakterga ega. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi ham aynan shunday mamlakatlar jumlasiga kirib, ushbu hol fuqarolar o'rtasida tinchlik-totuvlik hamda millatlararo hamjihatlikni saqlab qolishga to'sqinlik qilmaydi. Jahon tajribasidan ma'lumki, davlatning barqarorligi ko'p jihatdan millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish qobiliyatiga bog'liq. Keyingi vaqtlarda globallashtirib borayotgan dunyodagi mojarolar, shu jumladan, millatlararo nizolar kuchayayotgan bir sharoitda bu muammo, ayniqsa, muhim o'ringa chiqib boryapti. Shu munosabat bilan millatlararo totuvlik har qanday ko'p millatli davlat uchun hal qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda barcha davlatlarning ravnaqi va rivojining asosi, shubhasiz, unda istiqomat qilayotgan turli etnomadaniy, milliy guruhlariga tegishli elat va millat vakillarining tinch-totuv va farovon hayoti, barqaror o'zaro munosabatlari va bag'rikengligiga borib taqaladi. Mamlakatda mavjud o'zga millatlar madaniyatiga ijobiy munosabatda bo'lish, ularning milliy qadriyat va urf-odatlariga hurmat bilan qarash, madaniy meroslarini oyoqosti qilmaslik va ularni kelajak avlod uchun asrab-avaylash har bir fuqaroning burchidir.

Madaniyatlararo muloqot barcha darajadagi munosabatlarda ishtirok etish imkonini beradi. Shunga qaramay, uning ayrim qirralari oxirigacha to'liq yoritilmagan. Bugungi axborot olami tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ong-u shuurimizni egallab borayotgan bir sharoitda, xalqlarning madaniy integratsiyasi shiddat bilan o'sayotganligiga tabiiy jarayon deb qarasaq, noto'g'ri bo'lmaydi. Shu bilan birga, globallashtiruvchi davrida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish masalasi moddiy va nomoddiy buyuk madaniyat va dunyo sivilizatsiya si tarixida alohida o'rin tutgan xalqlarni o'ylantiruvchi dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Inson yaratgan ijtimoiy borliq, yon-atrof va artefaktlar uning ongi, aql-u idroki mahsulidir. Obyekt inson ongidan tashqarida, Gegel aytganidek, "o'z-o'zi uchundir", lekin mazkur obyektни artefaktga aylantiruvchi kuch inson ongi, tafakkuridir. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar ham subyektiv omil ong, aql-u idrok, tafakkurni shakllantiruvchi g'oyaviy, mafkuraviy ta'siridan. Ro'paramizda o'tirgan kishidan etnopsixologik belgilar izlash ongimizga shunchalik o'rnashib qolganki, biz beixtiyor irqiy ayirmachilikka, boshqalardan farq izlash orqali "Ular"ni "Biz" yoki "Men"dan ajratmayotganimizni to'la anglamaymiz. To'g'ri, bu hali etnoegoizm emas, lekin qandaydir tashqi sabab paydo bo'lsa, ongimizdagi o'sha farq izlovchi kuch darrov harakatga keladi. Milliy birlikni anglash, birdamlik faqat anglanilgan milliy g'oya asosidan bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, ukrain faylasufi S.Krimskiyning "O'z davlatchiligiga ega bo'lmagan etnos erkin taraqqiyot davrini bosib

o'tmaydi" , degan fikriga qo'shilish mumkin. Millatlararo munosabatlar ongdan, aql-u idrokdan tashqarida paydo bo'lmaydi. Xatti-harakatlar, "Seniki"- "Meniki" deyishlar obyektiv xarakterga ega, ammo ular ongda shakllangan etnopsixologik tasavvurlar mahsulidir. Demak, millatlararo munosabatlarni shakllantirish ham, ularni rivojlantirish ham mafkuraviy, ma'naviy asoslarga ega.

Millatlararo munosabatlar dunyodagi har bir davlatda o'zining tarixi, xususiyatlariga ega bo'lgan, jamiyatning eng nozik va murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolaridan biridir. Jumladan, milliy masala davlatlarda "milliy xavfsizlik" tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri bo'lib, bu masalalarning ba'zi davlatlarda o'z yechimini topa olmayotganligi davlatlarning milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi omilga aylanib borayotganligi sir emas. Zero, O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu masala xususida to'xtalib, shunday degan edi: "Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik bo'lmasligi nafaqat ayrim davlatlarning, balki butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan" . O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillarining Vatanni sevishi unga sodiqligi "O'zbekiston yagona yurtimiz" asosida shakllangan Vatanga muhabbat tuyg'ularini, shu yurt fuqarosi ekanligidan faxr-iftixorda ekanliklarini o'tkazilgan so'rovnomalar natijasidan ham anglash mumkin.

Sotsioloik so'rovnomalar ko'rsatadiki, fuqarolarimiz ongida O'zbekiston fuqarosi bo'lishga munosabat har xil. 2008-yili respondentlarning 50,7 foizi millatga mansublik ham, fuqarolik ham muhim deb javob bergan, 2010-yilda ushbu ko'rsatkich 58,1 foizga chiqqan. Qoraqalpoqlarning 23,9 foizi millatga mansubligini, 10,9 foizi fuqaroligini muhim deb biladi, ular qozoqlarda o'sha tartibda, 27,3 va 18,2 foizni, qirg'izlarda 11,1 va 5,6 foizni, slavyanlarda 2006- yili 25,6 va 16,3, 2010 yilda esa 23,1 va 7,7 foizni tashkil etgan. O'zini O'zbekiston fuqarosi ekanligidan faxrlanish tuyg'usi turli millat vakillari ichida yildan yilga oshmoqda. U 2003-yili 68,5, 2006-yili 68,7, 2007-yili 68,4, 2008-yili 62,1, 2010-yili 76,8 va 2013 yili 84,1 foizni tashkil etgan. 2013-yilgi so'rovnomada ishtirok etgan tojiklarning 96,0%, turkmanlarning 89,5%, o'zbeklarning 85,2%, qozoqlarning 83,3 foizi, slavyanlarning har ikkitadan bittasi O'zbekiston fuqarosi ekanligidan faxrlanishini bildirishgan. Viloyatlar taqsimotida o'zini O'zbekiston fuqarosi ekanidan faxrlanuvchi respondentlar 2013-yilda Surxondaryoda 100%, Sirdaryoda 96,3%, Xorazmda 94,9%, Qashqadaryoda 93,9%, Jizzaxda 92,9%, Farg'onada 90,9%, Buxoroda 89,4%, Namanganda 86,4%, Navoiyda 85,3%, Toshkent shahrida 83,5%ni tashkil qilgan. Demak, milliy mafkuraning qaysi yo'nalishda targ'ibot olib borishi zarurligi ushbu raqamlardan ayon bo'ladi. Milliy mafkuraga ko'ra, fuqarolarning O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning kelajagi uchun mehnat qilib, kurashib, izlanib, elim deb, yurtim deb yashashi lozim. Milliy mafkurani millatlar ongiga singdiruvchi asosiy mexanizmi bu ta'limdir. Etnomadaniy ta'lim asnosida milliy mafkurani yosh avlodning ongiga singdirib borilsa, millatlar o'rtasida men va sen ajratishdek ega yomon illat

vujudga kelmaydi. Milliy mafkura jamiyat - inson tamoyiliga asosan davlat uchun xizmat qilsa, jamiyatda mavjud bo'lgan boshqa millatlarga millatchilik ko'zi bilan qarash titil millat millat uchun bo'lmaydi. Millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar, millatchilik mamlakatlarning ijtimoiy hayotini butunlay izdan chiqaradi, hatto ayrim davlatning parchalanishiga ham sabab bo'ladi. Natijada, butun bir mintaqada ijtimoiy barqarorlik izdan chiqadi. 1995-yil oktyabr oyida Kanadaning Kvebek shtatida yashovchi fransuzlar, ko'pchilikni tashkil etmasa-da, o'z ona tiliga davlat tili maqomini berish, Kanadadan ajralib chiqish, referendumda boshqa millat vakillari buni qo'llab-quvvatlamadi, ammo ajralib chiqishga qaratilgan harakatlar davom etmoqda. Bunday jarayon 2022-yil 2-3-iyul kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasida yuz bergan chiqishlarda ham kuzatildi. Albatta, bunda tashqi kuchlarning ta'siri bor. Chunki olomonning shu tariqa ko'chaga chiqishiga kimlar va nimalardir turtki bo'ladi. Dunyodagi aksariyat davlatlarning polietnik xususiyatini inobatga olsak, "fuqaro" tushunchasi "millat" tushunchasidan yuqori, kishilar qalbida shu Vatanga mehr-muhabbat uyg'otish muhim ekanini anglaymiz.

Ko'p millatli O'zbekistonda esa yildan yilga millatlararo munosabatlardagi keskinlik pasayib, ular o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlik va bir-biriga o'zaro ishonch ortib bormoqda. Buni mamlakatimizda olib borilayotgan etnosiyosatning to'g'ri yo'lga qo'yilgani, o'zbek xalqining boshqa din va millatga mansub kishilarga nisbatan bag'rikenglik nuqtayi nazaridan munosabatda bo'layotgani bilan izohlash mumkin. Sho'rolar davrida "kam sonli millat" atamasi ko'p ishlatilgan va undan boshqa millatni kamsitish ma'nosida foydalanilgan. Tabiiyki, bu hol boshqa millatlar tomonidan ta'na va kamsitish sifatida qabul qilingan. Yangi etnosiyosiy paradigma milliy masalalarga bunday yondashuvdan voz kechdi. Bizda "kam sonli millat" atamasi ishlatilmaydi, zero, o'zbek xalqi birga yashayotgan boshqa xalqlar, millatlar mavqeini kamsitishni istamaydi. XXI asrda insoniyat global iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik va mafkuraviy muammolarga duch keldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan dunyoviy va demokratik jamiyat qurish va uning o'ziga xos xususiyatlari yoshlarga bo'layotgan turli mafkuraviy tahdidlarni oldindan ko'ra bilish, mazkur tahdidlarning aks-ta'sirini aniqlash, ularga qarshi immunitet tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Mafkuraviy tahdidlar davlatlar butunligiga, suverenitetiga siyosiy tuzumni ichdan yemirishga, ag'darib tashlashga qaratilgan. Aksariyat hollarda etnik nizolarni keltirib chiqarish ham ko'zlanadi. "Aslini olganda, xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar ancha serqirra. Ular siyosiy ekstremizm, shu jumladan, diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya muammolarini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo'lsa-da, insoniyatda bir xilda tashvish tug'dirmog'i darkor". "Sovuq urush"ning tugashi bilan xalqaro munosabatlar tizimida yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi boshlandi. Bu jarayon

globalashuv va integratsiyalashuv vositasida yanada jadallashmoqda. Ma'lumki, globalizatsiya obyektiv va qonuniy jarayon bo'lib, u ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Globalashuv davlatlarga xalqaro maydonga chiqish, istagan davlatlar bilan hamkorlik qilish, milliy manfaatlarini qondirish uchun integratsiyaga kirishish imkonini bermoqda. Boshqa tomondan u kuchli davlatlarning geosiyosat maydonidagi to'qnashuvlarni, zaif, endi rivojlanish yo'liga kirgan davlatlar ustidan nazorat o'rnatishni, mustaqil davlatlarga turli tazuiqlar o'tkazishni yuzaga keltirmoqda. Amerkanizm bayrog'i ostida "global hukumat" tuzish g'oyasi targ'ib etilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning o'z milliy davlatchiligini shakllantirish yo'lidagi harakatlari G'arbdagi mutaxassislar tomonidan xolisona baholanavermaydi. Masalan, Z.Bzejnskiy, Rossiyadagi islohotlar natijasida totalitarizm yo'q bo'ldi, ammo avtoritarizm elementlari hamon mavjud, deb yozadi. Sobiq Ittifoq hududidagi davlatlarda demokratik islohotlar jarayoniga shubha ostida nazar tashlab, bo'layotgan barcha ijobiy o'zgarishlarni "o'troqlik", "davlat zug'umi", "fuqarolik jamiyatining mavjud emasligi va qurib bo'lmasligi", "o'zgarishlarning yuz bermayotganligi", "inson huquqlarining buzilayotganligi" qabilidagi salbiy va haqiqatga zid baholanmoqda. Shunga o'xshash fikrlar bilan mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatlarni "yo'ldan adashgan davlatlar" sifatida "maxsus ro'yxatlarga kiritish", buning asosida esa ularga demokratiyani eksport qilish choralarini ko'rish nazarda tutilmoqda. Vaholanki, "Davlat qurilishi borasida tanqidiy nuqtayi nazarsiz qabul qilinadigan tayyor qolip va andozalar yo'q. Dunyoda bir-biriga o'xshagan aynan ikkita davlat ham yo'q. Bunday bo'lishi ham mumkin emas. Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U har bir xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyat rivojining natijasidir". O'zbek millati ham mintaqada yashovchi xalqlar singari murakkab etnotarixiy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy jarayonlarni boshidan kechirib, tarixning zalvorli dovonlarida mintaq xalqlari orasida yetakchilik mavqeida turib, birlashtiruvchanlik salohiyatini namoiyish etib keladi. Bugungi kunda ham "Harakatlar strategiyasi" hamda doirasidagi dasturiy vazifalar O'zbekiston etnoijtimoiy va siyosiy birligini yanada jipslashtirishga mo'ljallanganligi bilan bir qatorda mintaq aholisi orasida yaxshi qo'shnichilik va manfaatli hamkorlik asosida mintaqaviy ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlab borish, bunda asrlar davomida sayqallanib kelgan do'stlik va qon-qarindoshlik an'alariga sodiqlik xislatini yuksaltirish O'zbekiston davlat siyosatidagi asosiy qirralardan biri sifatida qaralayotganligi e'tiborli bo'lib, fenomenologik xususiyatidan dalolat. Chunki bugun davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tub negizida insonparvarlik g'oyalari mujassam. Chunki O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir millatning qonun oldida tengligi huquqiy jihatdan kafolatlangan. So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhiti va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilsh.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar sur'atini, keng ko'lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya - O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha oliyjanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Тошкент. Университет 2007, 5-б. (Murtazaeva R.H. Interethnic relations and tolerance in Uzbekistan. T. "University" 2007, 5-p.)
2. Гегель Ф. Работы разных лет.-Москва: Гослитиздат, 1957.-С.128-129.
3. Мусаев О. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ривожини.-Тошкент: Истиклол нури, 2016.- 186-187 б.
4. Крымский С.Метаисторичечкие ракурсы философии истории.// Вопросы философии, №:6.2001. С.39.
5. Ҳожиева М. Онгда толерантликни ривожлантиришнинг негизлари.-Тошкент: Маънавият, 2008.-70 б.
6. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари.Т.: 1998.– В. 471.
- 7.Убайдуллаев Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Каюмов. У.К. Социология общественного мнения: теория, методика, практика.-“Ижтимоий фикр”, 2010. - С.103.
- 8.Убайдуллаев Р.А., Ата-Мирзаев О.Б. Изучение общественного мнения в Узбекистана: теория, методика, практика. -Тошкент: «Iqtisod-moliya», - 2014. - С.203.
- 9.Убайдуллаев: Р.А.,Ата-Мирзаев О.Б. Изучение общественного мнения в Узбекистана: теория, методика, практика. -Тошкент: «Iqtisod-moliya», 2014. - С.203.
10. Каримов И.Ўзбекистон буюк келажак сари. -Тошкент: . Ўзбекистон, 1998. - 426 б.

11. Сорос Дж. О глобализации. -Москва: Аспект-пресс, 2007 С.168-176.
12. Бжезинский З. Великая шахматная доска.-Москва: “Межд.отношения”, 2000.- С.130-131.
13. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, истиқлол, сиёсат, мафкура. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон. 1996.-51 б.
14. Назаров Н. Марказий Осиё полиэтник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий -функционал тадқиқи: дисс. – Тошкент, 2019